

HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI

Reja:

- 1. Hamkorlik pedagogikasining asosiy yo'nalishlari.**
- 2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan noan'anaviy dars shakllari.**
- 3. O'quvchilarni hamijodkorlikka o'rgatish.**

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari:

- Hamkorlikda fikr almashish;
- Suhbat;
- Tahlil;
- Munozara;
- Muzokara;
- Amaliy vazifalar bajarish;
- Biror narsani qurish (yasash);
- Masalalar yechish;
- va boshqalar.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil qilishda: o‘qituvchi-sinf, o‘qituvchi-kichik guruh, o‘qituvchi-katta guruh, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi.

Hamkorlikda o‘qitish – bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka o‘quvchi hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalgaloshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir.

Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- O‘quvchilarning o‘rganish jarayonini boyitadi;
- O‘quvchilarga ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;
- O‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;

- O‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- Axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- O‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- Turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos pedagogik, psixologik va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

- *tashkiliy-pedagogik asoslari* – o‘quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o‘zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o‘quv mashg‘uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish;

psixologik asoslari – o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotda har bir o‘quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo‘llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta’riflar, formulalar va boshqa shartlarning o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash;

uslubiy asoslari – mashg‘ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo‘lishini ta’minlash. Muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va boshqalar.

Hamkorlikda o‘qitish samaradorligini ta’minlovchi omillar:

- o‘quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi;
- dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o‘z xulosalarini asoslash;
- bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llash;
- amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtni ko‘proq ajratish;
- hamkorlikda o‘qiyotgan o‘quvchilarning bir-biriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko‘maklashuvi va boshqalar.